



Toshkent davlat  
sharqshunoslik universiteti

# XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2026

## **RISHTON KULOLCHILIK MAKTABIDA MAHSULOT TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI: XOM-ASHYO, SIR TAYYORLASH VA XUMDON AMALIYOTI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

**Bobir Odilov**

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Rishton kulolchilik maktabida sopol mahsulot tayyorlashning an'anaviy texnologik jarayonlari tarixiy-etnografik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalliy xom-ashyo manbalari, loy tayyorlash usullari, buyum shakllantirish, quritish texnologiyasi, tag-sir va tepasir tayyorlash hamda xumdonlarda pishirish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Rishton kulollarining mahsulot sifati va shakliga ta'sir etgan etnohududiy omillar ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Rishton kulolchilik maktabining Markaziy Osiyo hunarmandchilik an'analari tizimidagi o'rni va o'ziga xos texnologik tajribasini yoritishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Rishton kulolchiligi, xom ashyo, loy tayyorlash, tagsir, tepasir, ishqorli sir, xumdon, sopol buyumlar, kulolchilik texnologiyasi, etnohududiy xususiyat.*

## **ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА ИЗДЕЛИЙ В РИШТОНСКОЙ ШКОЛЕ КЕРАМИКИ: СЫРЬЕ, ПРИГОТОВЛЕНИЕ ГЛАЗУРИ И ПРАКТИКА ЛЕПКИ (КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА)**

**Бобир Одиллов**

*Доктор философии в области исторических наук (PhD), доцент  
Ташкентского государственного университета востоковедения*

**Аннотация:** *В данной статье на основе исторических и этнографических источников анализируются традиционные технологические процессы производства керамических изделий в школе гончарного мастерства в Риштоне. В исследовании рассматриваются местные источники сырья, методы подготовки глины, формовка изделий, технология сушки, подготовка подглазурных и надглазурных красок, а также процессы обжига в печи. Кроме того, раскрываются этнорегиональные факторы, повлиявшие на качество и форму изделий риштонских гончаров. Результаты исследования позволяют пролить свет на место риштонской гончарной школы в системе ремесленных традиций Центральной Азии и ее самобытный технологический опыт.*

**Ключевые слова:** Риштонская керамика, сырье, подготовка глины, тагсир, тепасир, щелочная глазурь, печь, керамические изделия, технология гончарного дела, этнорегиональные особенности.

## **PRODUCTION TECHNOLOGY AT THE RISHTO SCHOOL OF CERAMICS: RAW MATERIALS, GLAZE PREPARATION, AND MODELING PRACTICES (LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURY)**

**Bobir Odilov**

*Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)*

*Associate Professor,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

**Abstract:** *This article analyzes the traditional technological processes of producing ceramic products at the Rishton pottery school based on historical and ethnographic sources. The study examines local raw material sources, clay preparation methods, object shaping, drying technology, slip and glaze preparation, and kiln firing processes. Additionally, the ethno-regional factors that influenced the product quality and form of Rishton potters are revealed. The research findings serve to illuminate the place of the Rishton pottery school within the system of Central Asian craft traditions and its distinctive technological experience.*

**Keywords:** *Rishton pottery, raw materials, clay preparation, tagsir, tepasir, alkaline glaze, kiln, ceramic objects, pottery technology, ethno-regional characteristics.*

### **KIRISH**

Markaziy Osiyo hududi qadimdan hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida tanilgan bo‘lib, kulolchilik san’ati mintaqa aholisining moddiy va ma’naviy madaniyatida muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi qadimdan sopol buyumlar ishlab chiqarish an’analari rivojlangan hudud sifatida ajralib turadi<sup>1</sup>. Ushbu hududdagi kulolchilik markazlari orasida Rishton kulolchilik maktabi alohida mavqega ega bo‘lib, u o‘zining mahsulot sifati, rang-barang bezak uslublari hamda ishlab chiqarish texnologiyasining mukammalligi bilan mashhur bo‘lgan.

---

<sup>1</sup> Кодзаева Л. Вчера и сегодня риштанской школы керамики // Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 24–39.

Arxeologik topilmalar va tarixiy-etnografik ma’lumotlar Rishton hududida kulolchilik hunari juda qadim davrlardan rivojlanganini ko’rsatadi<sup>2</sup>. Bu yerda sopol buyumlar ishlab chiqarish nafaqat kundalik ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki iqtisodiy faoliyatning muhim yo’nalishlaridan biri sifatida shakllangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib esa Rishton nafaqat Farg’ona vodiysi, balki butun Markaziy Osiyodagi yirik kulolchilik markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda yuzlab ustalar faoliyat yuritib, ishlab chiqarilgan mahsulotlar uzoq hududlarga ham eksport qilingan.

Rishton kulolchilik maktabining rivojlanishida mahalliy tabiiy resurslar, xususan, sifatli loy konlarining mavjudligi muhim omil bo’lgan. Hududda uchraydigan “Hoki surx”<sup>3</sup> nomi bilan mashhur qizil tuproq kulolchilik buyumlarining pishiq va nafis chiqishiga imkon yaratgan. Bundan tashqari, bo’yoq va sir tayyorlashda qo’llanilgan tabiiy minerallar ham mahsulotlarning o’ziga xos rang va bezak uslubini shakllantirishda muhim rol o’ynagan. Natijada Rishton mahsulotlari o’zining ko’k, feruza, yashil va jigarrang rang uyg’unligi bilan boshqa kulolchilik markazlaridan ajralib turgan.

Shu bilan birga, Rishton kulollari ishlab chiqarish jarayonida asrlar davomida shakllangan an’anaviy texnologik tajribani saqlab qolgan. Loy tayyorlash, buyumga shakl berish, quritish, sir berish hamda xumdonlarda pishirish jarayonlari ma’lum tartib va qoidalarga asoslangan holda amalga oshirilgan. Bu jarayonlarning har biri mahsulot sifati va mustahkamligiga bevosita ta’sir ko’rsatgan. Ayniqsa, “ko’ktarosh” usulida quritish, ishqorli rangsiz sir tayyorlash va buyumlarni xumdonlarga joylashtirish kabi usullar Rishton maktabining o’ziga xos texnologik belgilaridan hisoblanadi<sup>4</sup>.

XX asr boshlarida sanoat mahsulotlarining bozorlarga kirib kelishi natijasida an’anaviy kulolchilik ma’lum darajada inqirozga yuz tutgan bo’lsa-da, Rishton ustalari o’z tajribalarini saqlab qolishga harakat qilganlar. Mustaqillikdan keyingi davrda esa ushbu an’analar qayta tiklanib, Rishton yana kulolchilik markazlaridan biri sifatida rivojlanishni davom ettirmoqda<sup>5</sup>. Biroq an’anaviy texnologik jarayonlarni ilmiy asosda o’rganish va tizimli ravishda tahlil qilish dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Rishton kulolchilik maktabida mahsulot tayyorlashning an’anaviy texnologik jarayonlarini tarixiy-etnografik manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida xom-ashyo bazasi, loy tayyorlash, buyum shakllantirish, quritish, tagsir va tepasir tayyorlash hamda xumdonlarda pishirish jarayonlarining o’ziga xos jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, mahsulot shakli va sifati shakllanishiga ta’sir etgan etnohududiy omillar ham yoritiladi.

---

<sup>2</sup> Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. — М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1959. — 355 с.

<sup>3</sup> Фармонова Б. Ремесленное производство Ферганской долины во второй половине XIX – начало XX века. – Ташкент, 1994. – С. 19.

<sup>4</sup> Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. ... — 355 с.

<sup>5</sup> Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.

Tadqiqot natijalari Rishton kulolchilik maktabining Markaziy Osiyo hunarmandchilik an’analari tizimidagi o’rnini aniqlashga, shuningdek, an’anaviy texnologik tajribani zamonaviy ilmiy yondashuv asosida qayta baholashga xizmat qiladi.

## ASOSIY QISM

### *Rishtonda xom-ashyo bazasi va loy tayyorlash an’analari*

Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishida hududning tabiiy sharoiti, ayniqsa sifatli kulolchilik loyining mavjudligi hal qiluvchi omil bo’lgan. Hunarmandchilikning ko’plab turlarida xom-ashyo muhim ahamiyatga ega bo’lsa-da, kulolchilikda loy sifati tayyor mahsulotning mustahkamligi, nafisligi va uzoq muddat xizmat qilishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Rishton hududida qadimdan “Tuproqxona”<sup>6</sup> deb atalgan, mahalliy aholiga “Hoki surx” nomi bilan tanilgan qizil tuproq koni mavjud bo’lib, kulollar asosan shu yerning loyidan foydalanganlar. Ushbu loyning asosiy xususiyati uning shiraligi va yumshoqligidadir. Bunday loydan tayyorlangan buyumlar shakl berishda qulay bo’lib, quritish va pishirish jarayonida kamroq yorilgan. Shu sababli Rishton mahsulotlari devorining yupqaligi, shaklining nafisligi va yengil ko’rinishi bilan boshqa hududlardagi sopol buyumlardan ajralib turgan.

Farg’ona vodiysidagi boshqa kulolchilik markazlarida esa loy tarkibini mustahkamlash uchun qo’shimcha moddalar qo’shilgan. Masalan, G’urumsaroy va Shahrixon kulollari loyga qamish kuli yoki boshqa aralashmalar qo’shganlari sababli u yerda tayyorlangan buyumlar devori qalinroq bo’lgan<sup>7</sup>. Rishtonda esa mahalliy loyning tabiiy sifati yuqori bo’lgani uchun qo’shimcha aralashmalardan deyarli foydalanilmagan. Bu hol mahsulotlarning shakli va ko’rinishida ham sezilarli farqlar paydo bo’lishiga olib kelgan.

Kulolchilik ishlab chiqarishida faqat loy emas, balki bo’yoq va sir tayyorlash uchun zarur bo’lgan boshqa mineral xom-ashyolar ham muhim rol o’ynagan. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, Rishton kulollari ayrim mineral moddalarni qo’shni hududlardan keltirib ishlatganlar. Jumladan, gilbo’ta Isfara hududidan, qizil rang beruvchi jousha va mag’l Chorku tomondan olib kelingan. Mis esa ba’zan mahalliy konlardan, ba’zan esa Qo’qon orqali keltirilgan. Bu moddalar keyinchalik bo’yoq va sir tayyorlashda qo’llanilgan.

Loy tayyorlash jarayoni ham aniq tartib asosida amalga oshirilgan. Avvalo, Tuproqxonadan olingan loy tozalanib, undagi tosh va boshqa qattiq aralashmalar ajratib tashlangan. So’ngra loy suv bilan aralashtirilib, bir necha bor ezilgan va yumshatilgan.

<sup>6</sup> Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.

<sup>7</sup> Martin F.R. Moderne Keramik von Centralasien: 15 Tafeln nebst Text. – Stockholm: G. Chelius in Kommission, 1897. - 33 pp.

Bu jarayon loyning bir xil holatga kelishi va undan buyum yasash jarayonini yengillashtirishga xizmat qilgan.

Shundan keyin loydan ma’lum hajmdagi bo‘laklar tayyorlanib, ular keyinchalik charxda ishlatish uchun saqlangan. Kulollar bunday tayyorlangan loy bo‘laklarini alohida nom bilan ataganlar va ularni buyum yasash jarayonida bosqichma-bosqich ishlatganlar. Loy qanchalik yaxshi tayyorlansa, undan yasalgan buyum ham shunchalik sifatli chiqishi kulollar tajribasida yaxshi ma’lum bo‘lgan.

## MUHOKAMA

Rishton kulollarining loy tayyorlashdagi yana bir muhim xususiyati shundaki, ular loyning xususiyatlarini juda yaxshi his qilganlar<sup>8</sup>. Tajribali ustalar loyning qaysi qismi qaysi buyum uchun mos kelishini aniqlay olgan. Masalan, yupqa devorli kosa yoki lagan tayyorlash uchun eng mayin loy tanlangan, katta hajmdagi buyumlar uchun esa nisbatan zichroq loy ishlatilgan.

Shu tariqa, Rishton kulolchilik maktabining shakllanishida tabiiy xom-ashyo, ayniqsa sifatli loy konining mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Aynan shu omil ustalarga nafis, yengil va mustahkam sopol buyumlar tayyorlash imkonini bergan va bu mahsulotlarning keng hududlarda mashhur bo‘lishiga zamin yaratgan.

### **Buyumlarni shakllantirish va quritish texnologiyasining lokal xususiyatlari**

Rishton kulolchilik maktabining boshqa kulolchilik markazlaridan ajralib turadigan jihatlaridan biri buyumlarni shakllantirish va quritish jarayonlarida qo‘llanilgan an’anaviy usullar bilan bog‘liqdir. Bu jarayonlar nafaqat tayyor mahsulotning tashqi ko‘rinishini, balki uning mustahkamligi va uzoq muddat foydalanishga yaroqliligini ham belgilagan.

Kulolchilik buyumlarini tayyorlash jarayoni asosan charxda amalga oshirilgan. Rishton ustaxonalari odatda ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi charxda buyumning asosiy qismi, ikkinchisida esa uning pastki qismi – ya’ni poyasi yoki “poshnasi” shakllantirilgan. Bu usul buyumning shaklini aniq chiqarish va uning muvozanatini ta’minlash imkonini bergan. Avval buyumning asosiy qismi yasalgach, u bir oz quritishga qoldirilgan, so‘ngra ikkinchi bosqichda poyasi ishlangan.

Buyum shakllantirish jarayonida ustaning tajribasi va qo‘l harakatlarining aniqligi muhim rol o‘ynagan<sup>9</sup>. Har bir usta o‘ziga xos ish uslubiga ega bo‘lgan. Hatto bir ustaxonada ishlovchi ustalarning mahsulotlari ham ayrim shakl va nisbatlar bilan farqlanib turgan. Bu, avvalo, ustalarning o‘zlariga moslab tayyorlagan ish qurollari, ayniqsa buyum yuzasini tekislashda ishlatiladigan moslama – “mola”ning shakli bilan bog‘liq bo‘lgan. Har bir usta molani o‘z ish uslubiga moslab tayyorlaganligi sababli tayyor buyum shaklida ham muayyan farqlar paydo bo‘lgan.

<sup>8</sup> Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.

<sup>9</sup> Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.

Rishton buyumlari, ayniqsa kosalar va laganlar devorining yupqaligi bilan mashhur bo‘lgan. Buning asosiy sababi mahalliy loyning shiraligi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ustalarning shakl berish texnikasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Charxda ishlash jarayonida usta loyni tezlik bilan aylantirib, barmoqlari yordamida buyum devorini sekin-asta yuqoriga ko‘tarib, bir xil qalinlikka keltirgan<sup>10</sup>. Natijada idish ichki qismi keng, devorlari esa nisbatan yupqa va nafis ko‘rinishga ega bo‘lgan.

Buyum shakllantirilgach, uning sifati ko‘p jihatdan to‘g‘ri quritilishiga bog‘liq bo‘lgan. Agar buyum noto‘g‘ri sharoitda tez qurib qolsa, unda yoriqlar paydo bo‘lishi yoki shakli buzilishi mumkin edi. Shu sababli Rishton kulollari buyumlarni quritishda o‘ziga xos usuldan foydalanganlar. Bu usul mahalliy ustalar tomonidan “ko‘ktarosh” deb atalgan.

Mazkur usulga ko‘ra, yangi yasalgan buyumlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri ostida emas, balki salqin va soyali joyda asta-sekin quritilgan. Bu esa buyumning barcha qismlari bir maromda qurishini ta‘minlagan va uning yorilib ketishining oldini olgan. Ayniqsa, yupqa devorli kosalar uchun bu usul muhim hisoblangan.

Chinni buyumlar tayyorlash jarayonida esa quritish bosqichi biroz boshqacha amalga oshirilgan. Charxda shakl berilgan buyum avval qisqa vaqt, taxminan bir-ikki soat davomida quyoshda ushlab turilgan, so‘ngra ikki kun davomida salqin joyda quritilgan. Bu jarayon buyumning tashqi qismi tezroq qotib, ichki namlik esa sekin chiqib ketishiga imkon bergan. Natijada chinni buyumlar ham kam yorilgan va mustahkam chiqqan.

Quritish jarayonida buyumlarning bir-biriga tegib ketmasligiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Ustalar buyumlarni maxsus joylashtirib, ularning orasida havo aylanishiga sharoit yaratganlar. Bu esa quritish jarayonining bir xil kechishini ta‘minlagan.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, har bir buyumning shakli ham uning quritilish jarayoniga ta‘sir qilgan. Masalan, keng laganlar va katta kosalar kichik idishlarga qaraganda uzoqroq quritilgan. Tajribali ustalar buyumning qachon keyingi bosqichga o‘tkazilishi mumkinligini uning rangidagi o‘zgarish va yuzasining holatiga qarab aniqlaganlar.

Umuman olganda, Rishton kulollari buyum shakllantirish va quritish jarayonlarini chuqur tajribaga asoslanib olib borganlar. Aynan shu bosqichlarning to‘g‘ri bajarilishi keyingi sir berish va xumdonlarda pishirish jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

**Tagsir, bo‘yoq tayyorlash va naqsh berish texnologiyasi: rishton maktabining amaliy tajribasi.**

Rishton kulolchilik maktabida buyum tayyorlash jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri bu tagsir berish, bo‘yoq tayyorlash va naqsh tushirish jarayonlari

<sup>10</sup> Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.

hisoblanadi. Aynan shu bosqichda oddiy sopol buyum badiiy mahsulotga aylangan. Rishton ustalari uchun buyumning shakli qanchalik muhim bo’lsa, uning yuzasiga beriladigan rang va bezak ham shunchalik katta ahamiyat kasb etgan.

Kulollar tajribasiga ko’ra, agar buyumga to’g’ri tagsir berilmasa, keyinchalik tushiriladigan ranglar ham xira ko’rinishda chiqishi yoki sir yuzasida nuqsonlar paydo bo’lishi mumkin edi. Shu sababli tagsir tayyorlash va uni buyum yuzasiga surtish jarayoni alohida e’tibor bilan bajarilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Rishton qadimdan ishqor va oqtosh asosida tayyorlangan rangsiz tagsir keng qo’llanilgan. Bu aralashma buyum yuzasiga surtilgach, uning ustiga chiziladigan naqsh ranglarini yorqin ko’rsatish imkonini bergan. Keyinchalik esa qo’rg’oshin, gilbo’ta va boshqa minerallar asosida olingan rangli tagsirlar ham qo’llanila boshlagan.

Ustalar mineral moddalarni maxsus tosh idishlarda maydalab, so’ngra uni kukun holiga keltirganlar. Bu kukun suv bilan aralashtirilib, suyuq massa tayyorlangan. So’ng buyum yuzasiga bir tekis surtilgan. Tajribali ustalar tagsirning qalin yoki yupqa surtilishini ham buyum turiga qarab aniqlaganlar.

Rishtonlik mashhur usta Alisher Nazirovning ta’kidlashicha, kulolchilik buyumining haqiqiy jozibasi rang uyg’unligida namoyon bo’ladi<sup>11</sup>. U vodiy kulolchiligining asosiy rang majmuasini lojuvard deb ataluvchi ko’k-havorang va yashil-havorang tuslar tashkil qilishini, bu ranglarning jigarrang va binafsha ranglar bilan uyg’unlashuvi esa Rishton mahsulotlarini boshqa maktablardan ajratib turishini qayd etgan.

Bo’yoqlar tayyorlash jarayonida ham ustalar katta tajribaga ega bo’lganlar. Masalan, ko’k rang olish uchun lojuvard minerali maydalangan, qora rang uchun mag’l ishlatilgan. Yashil rang esa misni xumdonlarda kuydirish orqali hosil qilingan. Mis kuyganidan so’ng uning yuzasida hosil bo’lgan qora qatlam “posqoloq” deb atalib, u maydalab elangan va suv bilan aralashtirilib bo’yoq tayyorlangan.

Agar ustaga qoramtir yoki to’q rang kerak bo’lsa, lojuvardga mag’l qo’shilgan. Havorang olish uchun esa lojuvard suyultirilgan. Jigarrang rang olishda esa mag’l, jousha va gilbo’ta aralashmasidan foydalanilgan. Shu tarzda ranglar ustalar tomonidan kerakli nisbatda aralashtirib tayyorlangan<sup>12</sup>.

Naqsh tushirish jarayoni ham Rishton maktabida yuqori darajada rivojlangan. Naqshlar ikki asosiy usulda tushirilgan: qalami va bosma usulda. Qalami usulida naqsh buyum yuzasiga qo’lda chizilgan. Bu jarayonda ustalar echki junidan tayyorlangan maxsus qalamchalardan foydalanganlar. Har bir usta qalamni o’ziga moslab tayyorlagan, bu esa naqsh uslubida ham individual farqlar paydo bo’lishiga sabab bo’lgan.

<sup>11</sup> Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. A. Nazirov bilan suhbat. 2025 yil.

<sup>12</sup> Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. A. Nazirov bilan suhbat. 2025 yil.

Bosma usulida esa naqsh maxsus qoliplar yordamida tushirilgan. Qolip sifatida qovoq, sabzi yoki boshqa sabzavotlardan foydalanilgan. Ushbu usul oddiyroq naqshlarni tezroq tushirish imkonini bergan.

Rishton kulolchiligida naqshlar nafaqat bezak vazifasini bajargan, balki ma’lum ramziy ma’noga ham ega bo’lgan. Masalan, anor tasviri baraka va to’kinlik ramzi sifatida qo’llanilgan. Qalampir va pichoq tasvirlari esa xalqona qarashlarga ko’ra, uy va uning egalarini yovuz kuchlardan asraydi deb ishonilgan. Tadqiqotchi M. Rahimovning yozishicha, mashhur ustalar Holmat Yunusov va Mamasoli Mamadalievlar tayyorlagan idishlarda markaziy qismga tushirilgan pichoq yoki pichoq qini tasviri aynan himoya ramzi sifatida ishlatilgan.

Shuningdek, baliq, tuya, qush qanoti, qo’chqor shoxi, tuya ko’zi kabi naqsh elementlari ham keng tarqalgan. Bu bezaklar mahalliy aholining qadimiy diniy qarashlari va turmush tarzi bilan bog’liq bo’lib, ular asrlar davomida saqlanib kelgan.

Mashhur ustalar orasida Mahmudbek, To’xta usta, Madamin Oxun-Chinnipaz, Boyniyozmat, Matyoqub G’oziyev, O’lmas Ortiqboev, Abdulla Qosim Boltaboy hamda Boysalim Ko’zagarlarning ishlari alohida e’tirof etilgan<sup>13</sup>. Ularning mahsulotlarida rang tanlash va naqsh joylashtirishdagi muvozanat yuqori darajada saqlangan.

Shu tariqa, Rishton kulollari buyumning tashqi ko’rinishini bezash jarayonini faqat texnologik bosqich sifatida emas, balki estetik va ma’naviy mazmun beruvchi san’at darajasiga olib chiqqanlar. Aynan rang, naqsh va bezak uyg’unligi Rishton kulolchilik maktabini Markaziy Osiyodagi boshqa kulolchilik markazlaridan ajratib turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

### **Tepasir berish va xumdonda pishirish texnologiyasi: rishton kulolchiligida yakuniy ishlab chiqarish bosqichi.**

Rishton kulolchilik maktabida buyum tayyorlash jarayonining eng mas’uliyatli bosqichi tepasir berish va xumdonlarda pishirish jarayoni hisoblangan. Chunki bu bosqichda avvalgi barcha mehnat natijasi namoyon bo’lgan: agar pishirish jarayonida xatolik yuz bersa, buyum yorilishi, sir kuyib ketishi yoki ranglar xiralashishi mumkin edi. Shu sababli Rishton kulollari xumdon jarayonini katta tajriba va ehtiyotkorlik bilan boshqarganlar.

Tepasir buyum yuzasiga naqsh tushirilgandan so’ng berilgan yakuniy sir qatlami hisoblanadi. Ushbu qatlam buyum yuzasini silliqlashtirib, ranglarni yorqinlashtirgan hamda idishning suv va namlikka chidamliligini oshirgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rishtonda ishqor asosida tayyorlangan rangsiz tepasir keng qo’llanilgan

---

<sup>13</sup> Farmonova B.A. Remeslennoe proizvodstvo v Ferganskoy doline vo vtoroy polovine XIX – nachale XX vv.: Diss. ... kand. ist. nauk. – Tashkent, 1994.

bo‘lib, ustalar bu usulni “safedpaz” deb ataganlar<sup>14</sup>. Ushbu sir turi naqsh ranglarini aniq va ravshan ko‘rsatishi bilan qadrlangan.

Ba’zi hollarda sarg‘ish tus beruvchi tepasir ham ishlatilgan bo‘lib, bu usul “zardpaz” deb nomlangan. Keyinchalik Farg‘ona vodiysiga qo‘rg‘oshinli tepasir tayyorlash usuli kirib kelgan va u “sariqpaz” nomi bilan tanilgan<sup>15</sup>. Mazkur usulning Rishton hududida yoyilishi XIX asrda yashagan o‘ratepalik ustalar Toshkulol va To‘xta ustalar faoliyati bilan bog‘lanadi.

Ishqorli tepasir tayyorlash jarayoni ham aniq texnologik bosqichlardan iborat bo‘lgan. Tog‘ hududlaridan keltirilgan ishqor xumdonlarda kuydirilib, so‘ngra maydalanib kukun holiga keltirilgan. Ushbu kukunga ma’lum nisbatda ohak qo‘shilib, suv bilan aralashtirilgan va natijada zarur quyuqlikdagi sir hosil qilingan. Sirning zichligi juda muhim bo‘lib, u juda quyuq bo‘lsa, buyum yuzasida notekis qatlam hosil qilgan, juda suyuq bo‘lsa esa yetarlicha yopishmagan.

Qo‘rg‘oshin asosida tayyorlangan tepasir esa boshqa texnologiya asosida olingan. Qo‘rg‘oshin qozonlarda eritilib, sovitilgach maydalangan va unga oqtosh kukuni qo‘shilgan. So‘ng aralashma yaxshilab ezilib, bir xil massa holiga keltirilgan. Chinni buyumlar uchun esa murakkabroq aralashma ishlatilgan bo‘lib, unda qo‘rg‘oshin oksidi, qalay oksidi, oqtosh va ishqor ma’lum nisbatda aralashtirilgan.

Buyumlarga tepasir berilgach, ular xumdonlarda pishirishga tayyorlangan. Xumdon Rishton kulolchilik ustaxonasining eng muhim inshooti hisoblangan. Odatda xumdon uch asosiy qismdan iborat bo‘lgan: o‘t yoqiladigan pastki qism, buyumlar joylashtiriladigan o‘rta qism va issiqlik chiqadigan yuqori qism. Xumdonni ko‘pincha ustaning o‘zi qurgan va uning tuzilishi boshqa hududlardagi xumdonlardan keskin farq qilmagan bo‘lsa-da, ayrim lokal moslashuvlar mavjud bo‘lgan.

Buyumlarni xumdon ichiga joylashtirish aniq qoidalarga asoslangan. Laganlar odatda beshtadan qilib, poshnasi yuqoriga qaratilgan holda joylashtirilgan. Kosalar esa sakkiz-o‘n donadan qilib, poshnasi pastga qaratib qo‘yilgan. Chinni buyumlar esa kichik dastalar holida ustma-ust joylashtirilgan. Buyumlar orasiga maxsus tayanchlar qo‘yilib, ular bir-biriga tegib ketishining oldi olingan.

Buyumlarning sirlangan qismlari bir-biriga yopishib qolmasligi uchun ustalar har safar yangi tayanchlardan foydalanganlar. Tayanchlarning uchiga oqtosh aralashmasi surtib qo‘yilgan, bu esa pishirish jarayonida iz qolishining oldini olgan.

Chinni buyumlar odatda ikki marotaba pishirilgan: avval sir berilmasdan, keyin esa sirlangan holda. Bu usul buyumning mustahkamligini oshirish va sirning yaxshiroq yopishishini ta’minlagan.

Xumdon ichidagi haroratni boshqarish ham katta tajribani talab qilgan. Maxsus o‘lchov asboblari bo‘lmaganligi sababli ustalar olov rangiga qarab haroratni

<sup>14</sup> Martin F.R. Moderne Keramik von Centralasien: 15 Tafeln nebst Text. – Stockholm: G. Chelius in Kommission, 1897.36 pp.

<sup>15</sup> Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.

aniqlaganlar. Olov rangining o‘zgarishi ichki haroratning qaysi darajada ekanini ko‘rsatgan.

Pishirish jarayonida xumdonning og‘iz qismi ma’lum tartibda ochilib-yopilib turgan. Agar bug‘ o‘z vaqtida chiqarilmasa, sir xiralashib ketishi yoki xumdon devorlarida yoriqlar paydo bo‘lishi mumkin edi. Shu sababli ustalar bug‘ chiqishi uchun maxsus teshiklarni nazorat qilib turganlar<sup>16</sup>.

Pishirish jarayoni tugagach, xumdon birdaniga ochilmagan. Buyumlar ichkarida yana bir necha kun sovitilgan. Agar buyumlar tez sovutilsa, sir qatlamida darz paydo bo‘lishi mumkin edi. Sovutish tugagach, xumdon ochilib, buyumlar chiqarilgan va sifati bo‘yicha saralangan.

Shu tariqa, Rishton kulolchiligida tepasir berish va xumdonlarda pishirish jarayoni murakkab va aniq texnologik bilim hamda ko‘p yillik tajribaga asoslangan. Ushbu bosqich mahsulotning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning mustahkamligi va uzoq muddat foydalanish imkoniyatini ham belgilab bergan.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi tasodifiy jarayon emas, balki mahalliy tabiiy resurslar, ustalar tajribasi va avlodan-avlodga o‘tib kelgan texnologik bilimlar uyg‘unligi natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy-madaniy jarayondir. Ayniqsa, hududda sifatli kulolchilik loyining mavjudligi ustalarga yupqa devorli, nafis va mustahkam buyumlar tayyorlash imkonini bergan. Bu esa Rishton mahsulotlarining Farg‘ona vodiysi va butun Markaziy Osiyoda mashhur bo‘lishiga zamin yaratgan.

Maqolada tahlil qilingan materiallar Rishton kulollari mahsulot tayyorlash jarayonini aniq texnologik bosqichlar asosida olib borganliklarini ko‘rsatadi. Loyni tayyorlash, buyumni charxda shakllantirish, uni asta-sekin quritish, tagsir berish, bo‘yoq tayyorlash, naqsh tushirish hamda yakuniy tepasir berib xumdonlarda pishirish jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda amalga oshirilgan. Har bir bosqichdagi tajriba mahsulot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Ayniqsa, “ko‘ktarosh” usulida quritish, ishqorli sir tayyorlash, mineral bo‘yoqlardan foydalanish hamda xumdonlarda buyumlarni joylashtirishning aniq qoidalari Rishton kulolchilik maktabining o‘ziga xos texnologik xususiyatlarini tashkil etadi<sup>17</sup>. Shuningdek, ranglar uyg‘unligi va naqshlarning ramziy mazmuni ham buyumlarni oddiy maishiy idishdan badiiy mahsulot darajasiga ko‘targan.

Ustalar faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har bir usta o‘z tajribasi asosida mahsulot shakli, naqsh joylashuvi va rang tanlashda individual uslub yaratgan. Mahmudbek, To‘xta usta, Madamin Oxun, Boyniyozmat, Matyoqub G‘oziyev, O‘lmas Ortiqboev, Abdulla Qosim Boltaboy, Boysalim Ko‘zagar kabi ustalarning faoliyati

<sup>16</sup> Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.

<sup>17</sup> Martin F.R. Moderne Keramik von Centralasien: 15 Tafeln nebst Text. – Stockholm: G. Chelius in Kommission, 1897.

Rishton kulolchilik maktabi rivojida muhim o‘rin tutgan. Keyingi davrlarda esa an’anaviy ishqorli sirni qayta tiklashda A. Nazirov, Sh. Yusupov kabi ustalarning xizmatlari katta bo‘lgan<sup>18</sup>.

XX asr boshlarida sanoat mahsulotlarining bozorlarga kirib kelishi natijasida an’anaviy kulolchilik ma’lum darajada inqirozga yuz tutgan bo‘lsa-da, ustalar o‘z tajribalarini saqlab qolishga harakat qilganlar. Mustaqillikdan keyingi davrda esa Rishton kulolchilik maktabi qayta tiklanib, yangi bosqichga ko‘tarildi. Hozirgi kunda yuzlab ustalar faoliyat yuritib, an’anaviy usullar zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

Bugungi kunda Rishton kulolchilik mahsulotlari nafaqat maishiy buyum sifatida, balki milliy madaniyatni aks ettiruvchi san’at namunasi hamda turizm sohasining muhim tarkibiy qismi sifatida qadrlanmoqda. Shu sababli an’anaviy texnologiyalarni ilmiy asosda o‘rganish, ularni yosh avlodga o‘rgatish hamda hunarmandchilik maktablarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Rishton kulolchilik maktabining texnologik tajribasi ko‘p asrlar davomida shakllangan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan noyob madaniy meros hisoblanadi. Ushbu an’analarni ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliyotda davom ettirish nafaqat hunarmandchilikni saqlash, balki milliy madaniy identitetni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кодзаева Л. Вчера и сегодня риштанской школы керамики // Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 24–39.
2. Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. — М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1959. — 355 с.
3. Фармонова Б. Ремесленное производство Ферганской долины во второй половине XIX – начало XX века. – Ташкент, 1994. – С. 19.
4. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.
5. Martin F.R. Moderne Keramik von Centralasien: 15 Tafeln nebst Text. – Stockholm: G. Chelius in Kommission, 1897.36 pp.
6. Jumayev, G. I. (2023). Audiomanuscript. A project on the Study of oriental manuscript sources. // *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 50-52.
7. Jumayev, G., & Karimov, N. R. (2023). Exploring Art, Architecture, and Political Ideology in the Cultural Landscape of Uzbekistan.
8. Jumayev, G., & Karimov, N. (2023). The legacy of Tamerlane in Uzbekistan: art, architecture, and political ideology. *SGS-Engineering & Sciences*, 2(02).

<sup>18</sup> Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Rishton shahri. Sh. Yusupov bilan suhbat. 2024 yil.